

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

ERALIYEV BEKZODNING

**-FILOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA BAKALAVR
DARAJASINI OLISH UCHUN “ ABDULLA QODIRIYNING
“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA SHEVAGA XOS
SO'ZLARNING QO'LLANISHI” MAVZUSIDAGI BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Rahbar: katta o'qituvchi Xudoyqulova Sh.V.

Guliston - 2011

Mundarija

Kirish.....	3-6
1 BOB	
1.1.Adabiyotlar tahlili.....	7-10
1.2.Abdulla Qodiriy – mohir soʻz ijodkori.....	11-17
2 BOB	
2.1.Maqollarda shevaga xos soʻzlar.....	18-21
2.2.Abdulla Qodiriy – noyob isteʼdod sohibi.....	22-27
2.3.Xalq shevalari-soʻz boyligini taʼminlovchi manbaa.....	28-34
2.4.Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida qoʻllangan shevaga xos soʻzlar.....	35-44
Xulosa.	
Ona tili darslarida Abdulla Qodiriyning soʻz qoʻllash mahoratidan foydalanish.....	45-48
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	49-50

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho madaniy va ma'naviy merosni tiklash va keng ravishda tadqiq qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Bu muammoni hal etishning yo'llaridan biri, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, kishilar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hissini qaror toptirish va rivojlantirishdir. (3)

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimovning "Jamiiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir"(1).Har qanday mahalliy sheva tilning quyi shakli bo'lib, u adabiy tilning boyishi uchun bitmas-tuganmas manbaidir. Afsuski, bizning tilshunosligimizda tilning taraqqiyotini sun'iy tarzda tezlashtirishga intilish, xuddi mulkni umumlashtirishga shoshilganimiz singari umumiy tilga ega bo'lishga shoshilish tendentsiyasini uzoq vaqt hukmron bo'lib kelishi natijasida adabiy til mahalliy til-lahjalarga, ayrim mahalliy lahjalar bir-birlariga qarshi qo'yildi. Bu ham o'z navbatida, adabiy tilni har jihatdan kambag'allashtirdi, g'ariblashtirdi. O'zbek tilshunosligining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri Respublika hududidagi barcha lahjalarni sinchiklab o'rganib chiqish va ulardagi ko'plab unutilgan so'zlarni to'plash, ularni adabiy til xazinasiga olib kirishdan iboratdir.

Milliy qadriyatlarimiz, madaniy meros deyilganda o'zbek badiiy adabiyoti asarlari ham tushuniladi. Shu boisdan milliy tariximiz, an'analarimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz o'z aksini topgan ko'pgina asarlarimiz

mustaqilligimiz sharofati bilan o'zining haqqoniy talqiniga ega bo'lib, xalqimizning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'lmoqda. Bu biz uchun mustaqillik bergan ne'matlardan biridir. Olimlarimiz xalqimiz sardorining «O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi» degan gaplariga amal qilib, yosh avlodning ma'naviy dunyosini kengaytirish, ularning o'zligini chuqur anglash ushbu kunning eng hayotiy masalalaridan biri bo'lib kun tartibida turgan bir paytda Abdulla Qodiriy kabi shaxsiyati va asarlari milliy ma'naviyatining mo''tabar namunasi bo'lgan ulug' yozuvchining asarlarini har tamonlama tadqiq etmoq g'oyatda muhimdir. Bu borada qilingan va qilinadigan ishlar o'tmish tariximizni chuqur bilishga, uni e'zozlashga, u bilan faxrlanishga, uning qadriga etishga va uni ko'z qorachig'idek asrashga undaydi. Milliy tariximiz yozuvchilarimiz yaratgan asarlarida ham o'z ifodasini topgan va ular bilan chuqur tanishish, ushbu asarlarning boy lisoniy imkoniyatlarini tadqiq qilish nihoyatda muhimdir.

Ma'lumki, badiiy asarlarda, xususan, romanlarda turmush, umuman borliq, hayot keng qamrovda o'z badiiy, real ifodasini topdi. Shunga ko'ra badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganish, asar yozilgan davr tilini baholash, qahramonlar saviyasi, tili ularning qanday maqomga ega ekanliklarini belgilash va nihoyat, yozuvchining badiiy mahoratini ochib berish jihatdan ham juda muhimdir. Shunga qaramasdan, o'zbek tilshunosligida badiiy asarlarda, jumladan, romanlarda mavjud bo'lgan o'ziga xos alohida xususiyatlar, shevaga xos so'zlarning badiiy asarda qo'llanish jihatlari maxsus tadqiq etilgan asarlar deyarli yo'q.

Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ancha o'rganilgan ammo lingvistik tadqiqodlar ob'ekti sifatida kam o'rgangan. To'g'ri, maqola shaklidagi ishlar, boshqa masalalar tarkibida yo'l-yo'lakay aytilgan fikrlar yo'q emas, lekin monografik xarakterdagi ishlarga bizning ko'zimiz tushmadi. Shunga ko'ra, Abdulla Qodiriy asarlari tili turli jihatlardan atroflicha va chuqur tahlil qilish tilshunoslikning

dolzarb va muhim vazifalaridandir. Ana shunday masalalardan biri «Mehrobdan chayon» romanida qo'llanilgan shevaga xos so'zlarni aniqlash masalasi deb o'ylaymiz. Zero, o'zbek tili badiiy uslubining rivojini, unda adabiy til, badiiy til hamda xalq tili lisoniy imkoniyatlarining tutgan o'rnini roman matnida o'zbek tilining turli lug'aviy qatlamlari, grammatik vositalari, uslubiy tovlanishlari qanchalik ishga solinishini hisobga olmasdan turib adibning badiiy mahoratini belgilash mumkin bo'lmaydi. Bitiruv ishimizning dolzarbligi ana shular bilan belgilanadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Abdulla Qodiriyning romanida uchraydigan shevaga xos so'zlarni aniqlash, ulardagi o'ziga xoslikni tahlil qilish ishning asosiy maqsadidir.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi: «Mehrobdan chayon» romanida uchraydigan shevaga xos so'zlarni aniqlash, ularni alohida ajratib olish, qiyoslab chiqish ;

- Abdulla Qodiriyning tilga bo'lgan munosabatini, yozuvchi asarlari tilini o'rganilish darajasini belgilash;
- Badiiy asar tilida shevaga xos so'zlarni qo'llashning ahamiyatini belgilash va tahlil qilish;
- Asardagi shevaga xos so'zlarni o'rganish va shu asosda yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar:

- Abdulla Qodiriy ijodi, jumladan, asarlari tilini o'rganilish darajasi belgilashga harakat qildik, uning o'zbek tiliga, umuman, tilga bo'lgan e'tibori, olimlarning bu haqidagi fikrlari umumiy tarzda tahlil etildi;
- «Mehrobdan chayon» romanida uchraydigan shevaga xos so'zlarning qo'llanilishi hodisasi o'rganilib, til jihatdan tahlil qilindi va uslubiy jihatdan o'rganildi;
- Adibning o'zbek tili badiiy tasvir vositalaridan va qo'shimchalardan qanchalik mahorat bilan foydalanganligi belgilandi.

Ishda keltirilgan misollarni tahlil qilishda etakchi o'zbek tilshunos va adabiyotshunoslarning badiiy adabiyot tili, badiiy uslub, jumladan, Abdulla Qodiriyning asarlari tili haqidagi nazariy fikrlariga tayanildi.

Ishning tadqiqod ob'ekti. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi shevaga xos so'zlarning qo'llanishi ushbu tadqiqod manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqodning amaliy ahamiyati. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarining til xususiyatlarini o'rganish asosida ushbu ishda chiqarilgan xulosalar o'zbek adabiy tili uslubiyati tizimida badiiy uslubning shakllanishini belgilash, gap tarkibining rivojlanishida shevaga xos so'zlardan foydalanishning nazariya qimmatga ega ekanligi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

1 BOB

1.1. Adabiyotlar tahlili.

O'zbek tilshunosligining hozirgi kundagi eng dolzarb masalalaridan biri badiiy asar tilini o'rganishdir. Badiiy asar tilini o'rganish yozuvchi va shoirning badiiy mahoratini yoritish asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham ulkan san'atkorlarning hammasi tilga alohida ahamiyat berib kelganlar va badiiy asar tilini asarning asosiy qimmatini belgilovchi muhim faktorlardan biri deb hisoblaganlar.

Til jamiyatdagi kishilar orasida o'zaro aloqa quroli bo'lishi bilan birga, badiiy adabiyotning asosiy tasvirlash vositasi hamdir. Chunki tilning bir necha funktsiyasi bo'lib, shulardan eng muhimi uning kommunikativ funktsiyasi bo'lsa-da, biroq uning xabar berish, ayniqsa, ta'sir etish funktsiyasi ham juda muhimdir. Badiiy adabiyotda tilning ana shu ta'sir etish funktsiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot mana shu funktsiyani bajara olmaydigan tilsiz mavjud bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, til o'zining ta'sir etish funktsiyasini badiiy adabiyotda namoyish qiladi. Shuning uchun ham adabiyot so'z san'atidir. Til vositalaridan san'atkorona foydalanishgina asar barkamolligini ta'minlaydi, ijodkor mahoratini belgilaydi.

So'nggi vaqtlarda kundalik matbuot sahifalarida e'lon qilinayotgan ko'pgina kichik hajmdagi maqolalardan tortib, yirik yozuvchilar ijodini monografik planda yorituvchi va ayrim janrlarning xususiyatlarini, taraqqiyot tarixini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ham badiiy asar tilini o'rganishga alohida e'tibor berilayotganligi va badiiy asar tilining yozuvchi mahoratining tarkibiy qismi sifatida o'rganilayotganligi bejiz emas.

Badiiy asar tilini o'rganish yuzasidan qator yozuvchi, tanqidchi va etuk olimlarimizning maqola va ilmiy ishlari maydonga keldi. Bu sohada, ayniqsa, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida nazariy va amaliy ishlar ro'yobga chiqarilgan: atoqli olimlar, ijodkorlar badiiy asar tili, tilning asarda tutgan o'рни, ahamiyati, umuman tilga e'tibor berishning naqadar zarurligini

ta'minlashdan tashqari, shoir va yozuvchilarning asarlarini til jihatdan chuqur tahlil qilib berganlar.

Keyingi paytlarda o'zbek tilshunosligida ham ko'pgina so'z san'atkorlari, ulkan adiblar asar tilini o'rganish bilan bevosita shug'ullanib, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va monografiyalar yozdilar. Jumladan, adabiyotshunos va tilshunos olimlar, tanqidchilarning bu borada qilayotgan ishlari diqqatga sazovordir. Masalan, tilshunoslardan X.Doniyorov, Q.Samadov, S.Mirzayev, I.Qo'chqortoyev, A.Shomaqsudov, A.Xojiyev, R.Qo'ng'urov, M.Mirzayev adabiyotshunoslardan P.Qodirov, O.Sharofutdinov, adiblardan A.Qahhor, Oybek, S.Ahmad kabilarning asarlarini eslab o'tish lozim. Ular o'z asarlarida badiiy asar tilini, jumladan, A.Navoiy, Muqimiy, Abdulla Qodiriy, S.Ayniy, H.Olimjon, G'.G'ulom, A.Qahhor kabi buyuk san'atkorlarning asarlari tilini o'rganish yuzasidan qimmatli fikr va mulohazalarini bayon qilishgan.

Mashhur qozoq adibi Muxtor Avezov bu xususda yozadi: «Abdulla Qodiriy (Julqunboy) yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 1920 yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi. Uning asarlarini Qo'rmong'oz yoki Chaykovskiy kuylarini tinglaganday miriqib, gasht qilib o'qiysan kishi».

«Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani, - deydi atoqli turkman yozuvchisi Xidir Deryayev. – mening yosh qalbimda unutilmas ta'sir qoldirdi. Bu ta'sir natijasida menda bir fikr tug'ildi: Turkman xalqining ham shunday o'tmishi bor-ku, bu o'tmishdan men ham bir roman yozsam bo'lmaydimi?» Xuddi shunday ijodiy ta'sir tufayli ham adibning «Qismat» nomli romani bitildi. Ulkan adib Oybek bu haqda shunday deydi: «Abdulla Qodiriy mashhur yozuvchi, hammamiz qo'ldan qo'ymay o'qiydigan o'zbek adabiyotidagi birinchi ulkan va go'zal romanning avtori edi. U tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realist san'atkor edi»

Badiiy asar tiliga munosabat, uni badiiy-uslubiy jihatdan o'rganish kabi masalalar talqini uzoq tarixga ega bo'lsa-da, unga jiddiy e'tibor XX asrning 30-yillarida ancha ortdi. Olimlar badiiy asar tilini o'rganishda ikki aspekt (lingvistik va stilistik) mavjudligini ta'kidlaydilar. Akademik V.Vinogradovning fikricha, badiiy adabiyot tilini tadqiq qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslikka yaqin, biroq ularning har ikkisidan ajralib turuvchi maxsus filologik fanning tekshirish ob'ekti bo'lishi lozim.

Keyingi yillarda rus, jahon tilshunoslari qatori o'zbek tilshunosligida ham bu masalaga bag'ishlangan qator asarlar chop etildi. Akademiklar G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, olimlarimizdan R.Qo'ng'urov, A.Shomaqsudov, S.Karimov, F.Nasritdinov, Q Sodiqov, M.Qodirov, I.Mirzayev, M.Mukarramov, G Keldiyorova, G.Rixsiyeva, R.Normurodov, N.Jiyanova, M.Abdulxayrov, F.Bobojonov, A.Rahimov va boshqalar badiiy asar tilining turli jihatlarini o'rgandilar.

Abdulla Qodiriy asarlari tilini o'rganish bobida ham ayrim ishlar bajarilgan. Akademik I.Sultonov yozuvchining ijodini tahlil qila turib, uning badiiy tiliga ahamiyat bergan bo'lsa, F.Nasritdinov va H.Qahhorovlar yozuvchi tilinig xususiyatlarini maxsus o'randilar. Ammo yozuvchi asarlaridagi shevaga xos so'zlarni alohida va maxsus tadqiq qilishga yetarli e'tibor berilmay keladi. Bizningcha, Abdulla Qodiriydek buyuk yozuvchilar asarlari tilidagi har bir so'z alohida o'rganilishi lozim. Chunki ular, yozuvchining o'z tili bilan aytganda, so'z so'zlashda ulardan jumla tuzishda uzoq andisha qilganlar, har bir jumla, kerak bo'lsa har bir so'zni badiiy mazmun bilan boyitganlar.

Abdulla Qodiriy asarlari tili haqida adabiyotshunos olimlarimiz M.Qo'shjonov, A.Sobirov, A.Aliyevlar hamda yozuvchi Oybek ham o'z fikrlarini bildirganlar.

Abdulla Qodiriy asarlari tiliga o'ta talabchan bo'lgan. Shu o'rinda Abdulla Qodiriyning til haqidagi mulohazalarini keltirish o'rinlidir: "...Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat sanalmaydi.

So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqan yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin. ... va so'z so'zlashda ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o'zigina tushunib, boshqalarninig tushunmasligi katta ayb..., fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so'z va jumlalarga yozuvda aslo o'rin berilmasligi kerak''⁽⁵⁾

1.2. Abdulla Qodiriy - mohir so'z ijodkori

Buyuk adib Abdulla Qodiriy haqida o'ylaganimizda uning “O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari ko'z oldimizga keladi. Asardagi har bir qiyofa ko'z o'ngimizda jonlidek namoyon bo'ladi. Ular mehrimizni muhabbatimizni qozonsa, ayrimlari nafratimizga sazovor bo'ladi. Bu esa yozuvchining so'zga jon bag'ishlay olish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Abdulla Qodiriy juda boy so'z xazinasiga ega bo'lgan, har bir so'zning mohiyatini anglagan, nozik qirralarini topa olgan, ajoyib so'zlar guldastasidan mohirona, o'z o'rnida foydalana olgan adibdir.

Abdulla Qodiriy uslubiga xos san'atkorona mahorat uning badiiy asardagi qahramonlar tashqi qiyofasini tasvirlashda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda yozuvchi xazinasidagi durlarni shunday mahorat bilan tizadiki, natijada uning siyrati ham tashqi sifatlari bilan birga kitobxon tasavvurida aks etadi va bundan uning qanday odam ekanligi bilinadi.

Badiiy adabiyotda tilning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Agar yozuvchining o'ziga xos uslubi, badiiy tili bo'lmasa u yozgan asar o'quvchiga etarli darajada ta'sir qilmaydi. Abdulla Qodiriy tilga va uning badiiy-estetik hamda ijtimoiy roliga katta ahamiyat berar va yosh qalamkashlardan ham shuni talab qilar edi: **“Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat sanalmaydir. So'z - qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin”.**(A.Q. Kichik asarlar. T., 1969y. 186-187 betlar).(5)

Demak badiiy asarning sifati va qimmati, yozuvchining individual uslubi, o'ziga xos tasvirlash mahorati va jozibador, serjilo tili bilan belgilanadi. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanini ko'zdan kechirar ekanmiz, adibning ona tilimiz xazinasidan asar voqeasini ifodalash va obrazlar xarakterini ochib berish uchun tanlab olingan so'zlari tabiiy, ularni ishlatish usuli va yozuvchining tili ravonligiga amin bo'lamiz. Abdulla Qodiriy personajlar tilini

ham avtor nutqini ham mohirlik bilan ishlagan. Bu borada dialektizm va arxaizmlardan, xalq maqol va iboralaridan, soʻz oʻyinlari va frazeologizmlardan unumli foydalangan. Oʻxshatishlar, sifatlashlar, sermazmun mubolagʻalar va shu singari xilma-xil tasviriy vositalar bilan asar tilini bezagan.

Adib “Mehrobdan chayon” romanida ham tasviriy vositalardan keng foydalangan. Buni albatta xalq ogʻzaki soʻzlashuv nutqidan foydalangan holda tasvirlagan. Ayniqsa, asar qahramonlarini tashqi qiyofasini mohirlik bilan musavvirlarcha chizib bergan. Va albatta bu chizgilarni jonli xalq tili boyliklaridan foydalangan holda amalga oshirgan. Masalan, asardagi mulla Baxtiyor obrazini koʻraylik: **“Chiqqanlardan biri pak-pakana, yup-yumaloq, loʻp-loʻnda bir maxluq edi. Uning gavdasi bu qadar “kelishkan” boʻlishi ustiga , basharasi ham shunga monand tushkan, tomogʻining ostida choʻgiri qovundek boʻqoq gʻovlab yotar edi. Uning gavdasi misoli bir gupchak boʻlsa , shu gupchakning yuqorisida katta bir suv qovoqni bosh boʻlsin, deb oʻrnatgan edilar. Va bu yaltir qovoqning betida koʻz boʻlib, quyoshda qovjiragan ikkita gʻoʻlin turshak, ogʻiz erida bir kafsh, burun oʻrnida yuqorigʻa qarab oʻrmalagʻan bahaybat bir qurbaqa va quloq maqomidasuv qovoqning ikki bagʻrigʻa tiralgʻan ikki oshlov turar edi. Qosh va boshdagʻi soch toʻgʻrisida ogʻiz ochib boʻlmas, ammo besh-oʻn tuk, yaʼni soqol-murt gʻira-shira koʻzga chalinar edi. Sepkil va chechak dogʻi bu betni “muzoyaqakor”qilib koʻrsatganidek, oyogʻidagʻi choriq, ustidagi qisqa , eski alak chopon, belidagi besh-oʻn aylantirib bogʻlangʻan boʻz belboq, boshining uchdan bir qismigagina qoʻnib oʻltirgan tor pilta toʻppi bir “husn”ga yana bir yuz “husn” qoʻshib arz qilar edi. Bu maxluq doimiy oʻrdada turadigʻan xonning kundalik qizigʻi mulla Baxtiyor edi. Ikkinchisi mulla Baxtiyor bilan oʻchakishkandek , juda uzun boʻyliq, gʻilay koʻzlik, ajina qoshiqdek yuzlik, qotma, oʻzining boʻyidan ham uzunroq toʻn va boshigʻa qalandar kulohi kiyib, yalang oyogʻ, oʻrta yashar Davlat ismlik yana bir qiziq edi.”**(Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”, 168-bet)

Abdulla Qodiriy voqelikni tasvirlashda so'zlarni nihoyatda topqirlik bilan qo'llaydi. Obrazga mos so'zlarni mohirona qo'llaydi. Adibning tasvirlashidan asar qahramonlarining salbiy bo'yoqqa ega ekanligini ko'rinib turadi. Keltirilgan parchadagi **“kelishkan”**, **“husn”** **“muzoyaqakor”** so'zlaridan qahramonga nisbatan kinoya, piching, masxaralash va kulgu sezilib turadi. Bu esa adibning mahoratidan darak beradi va kitobxonni diqqatini tortib, asarni tugatmaguncha qo'ldan qo'ymasligiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda Abdulla Qodiriy o'z asarlari orqali qiyofa musavviri ekanligini yaqqol namoyon qiladi.

Abdulla Qodiriy romanlarida tasvirlangan asosiy qahramonlari hayotiyligi, tabiiyligi bilan, qalbning ko'z ilg'amas darajada tovlanib turishi, favqulodda kuchli jozibasi, sir-asrorlarga boy poetikligi bilan kishini maftun etadi. Ra'no ham shulardan biri. U, avvalo, o'zbek xotin-qizlarining timsoli yanglig' qabul etiladi. Ra'no shu so'zning to'la ma'nosi bilan samimiy, latofatli, zohirangina emas, botinan ham go'zallar go'zali.

«Mehrobdan chayon» romanidagi asosiy ijobiy obrazlardan bo'lgan Ra'no obrazining tahlilini Abdulla Qodiriyning bu obrazni yaratishdan asosiy maqsadini bildiruvchi quyidagi parchani o'qib berish bilan boshlash mumkin: «Ra'noning jasorati, -- deydi yozuvchi, --xonga qarshi isyoni... o'z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Ra'no yoshlik qizlarimizga ibratdir».

«Ra'noning ismi jismiga yohud husniga juda muvofiq tushgan edi... bu go'zal qiz och ra'no gulining tusida yoki oq-sariq tusida yaratilgan edi...sochi gungurt – qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham, quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi... jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda, qoralikdan boshqacha yana bir turli qizg'ish nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutashgan kabi ko'rinsa ham, ko'ndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyilib ko'tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidga berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turgan nafis erinlarining yuqorigi qismida sezilar sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq emas, oykulcha deb ham bo'lmas; kishiga kulib qaraganda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'ladi, go'yo bizga chin ra'no guli ochilgan holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillari orqa-o'ngini tutib yotar, qaddi uzunlik bilan qisqalikning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari; har holda, bu qiz yolg'iz Qo'qondagina emas, umuman Farg'onaning kuylariga qo'shilib maqtalaturgan edi».

Ra'no maktabda Alisher Navoiy, Amiriy, Fazliy, Sa'diy, Xo'ja Hofiz, Mirzo Bedil asarlarini, «Devoni Fuzuliy», «Layli va Majnun» dostonlarini, arab tili gammatikasini o'qib, o'rgandi. U o'zi yaxshi ko'rgan shoirlar she'laridan to'plam tuzadi, o'zi ham she'rlar yozib mashq qiladi.

Ra'no otasi maxdum ziqnaligi, xasisligidan qattiq ranjiydi, otasining yaramas xislatlari unda norozilik, g'azab uyg'otadi.

Abdulla Qodiriy Ra'noda qo'zg'olgan bu norozilikni uning maxdumni hajv qilib yozgan she'rida ham ifodalagan. Ra'no otasining ziqnaligini shunday chizadi:

Yog'lar to'kilsa erga, yotib yalar taqsirim,

Bo'lsa bozorda pastlik, sotib olar taqsirim.

Maxdumning xotini Nigor oyimga ruxiy azob berishi ham Ra'noni g'azablantiradi. U uy ishlarida, bolalarni o'qitishda onasiga yordamlashadi.

Abdulla Qodiriy Ra'noning Anvarni sevishi sabablarini romanda yorqini fodalagan. Romanda tasvirlanishicha, Ra'no Anvarni, u faqat xusnda emas, balki ahloq –odobida ilmda kamolot egasi bo'lgani uchun sevadi, ishonchli, dilkash kishisi sifatida uning haqida g'amxo'rlik qiladi, har bir harakatida, muloqatida Anvarga bo'lgan sadoqatini, sevgisini namoyish etadi. Shu fazilatlari bilan Anvarni o'ziga maftun etadi.

Abdulla Qodiriy Ra'no bilan Anvarning she'r orqali o'z sevgilarini bir-birlariga izhor etib turganlaridagi holatlarini tabiat bilan uyg'unlikda ifodalab deydi: **«... oy ham bir oz nurlanib, turmushga bila qadam bosgan bu ikki yoshning hozirga hollaridan kulimsiragandek ko'rinar edi. Boyagidan bir muncha kuchaya tushgan shamol gulni gulga qovushtirib, go'yo bu ikki yoshga, «Siz ham bilan shu gullar kabi qovushing» degandek bo'lar edi».**

O'zbek tili leksikasining boyishida laqablarning ham muhim hissasi bor. Laqablar ham til leksikasining boyishiga xizmat qiladi. O'zbek xalqida azaldan kishilarga laqab qo'yish rasm bo'lgan. Ba'zan ismlari bir xil bo'lgan kishilarni laqablari yordamida bir-birlaridan farqlashgan. Keyinchalik familiyalar paydo

bo'lgach, laqablarning nominativ xususiyati kamayib, uslubiy vazifani bajara boshlagan.

Har bir o'quvchida laqab oldin paydo bo'lganmi yoki ism oldin paydo bo'lganmi degan savol tug'iladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha farzand tug'ilishi kuniyoq yoki ikki, uch kundan keyin chaqaloqqa nom qo'yilgan. Keyin esa chaqaloqning fe'l atvori, xususiyati va boshqalardan kelib chiqib taqqoslash orqali laqablar paydo bo'lgan, ota-ona yoki o'zga bir kishi tomonidan laqab oldin yashirin tarzda, keyinchalik fe'l-atvor, yurish turish va boshqa xususiyatlarni umumlashtirib oshkor ravishda laqab qo'yilgan.

Shunday laqablar ham borki, insonni ulug'lash, uni ko'tarish, fe'l- atvoridagi yaxshi xislatlarni hisobga olishdan tashqari, insonni haqoratlash, qoralash kabi xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Buni Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan olingan quyidagi misollar yordamida ko'rib chiqishimiz mumkin. Asarda **Solih maxdum, Safar bo'zchi, Samad bo'qoq, domla Niyoz, mirzo Anvar, mulla Shahodat mufti, mulla Navro'z, Sultonali mirzo, mulla Abdurahmon, Olim qovoq, Shukur so'fi, Mamarajab mirzaboshi, Rajabbek poygachi, salim bo'yoqchi, Abdurahmon oftobachi, Valixon to'ra (Zokir-gov), Xudoyor udaychi, Muhammad Rajab munshiy, amir Umarxon, amir Baxodir, mulla Muhammad Niyoz** kabi laqablarni uchratishimiz mumkin. "Samad bo'qoq bilan Shukur so'fi imom afandining muloyimona, ham bitta-bitta ayni maqomig'a chertib va qator terib borg'an so'ziga somi' edilar".

Ajoyib soʻz sehgari Abdulla Qodiriy asarlarida biz sanʼatkorona qoʻyilgan laqablarni juda koʻplab uchratamiz. Abdulla Qodiriy ijodiga nazar tashlash orqali badiiy adabiyotda laqablarning ahamiyati beqiyos ekanligini koʻrishimiz mumkin. U asar qahramonlariga laqab qoʻyishda ham oʻzining sanʼatkorligini namoyon qila olgan. U badiiy soʻz sanʼatkori sifatida laqablardan turli uslubiy maqsadlarda foydalangan.

Xulosa qilib aytganda Abdulla Qodiriy ajoyib laqablar ijodkori sifatida ham muvaffaqiyat qozona olgan adib hisoblanadi. Adib bu laqablarni qoʻllash orqali asarni yanadi tabiiy va haqqoniy, uslubiy boʻyoqlarga boy qilishga, xalqchillikni kuchaytirishga, oʻsha davr ruhiyatini koʻrsatishga erishgan. Shuning uchun ham Abdulla Qodiriy asarlari hanuzgacha kitobxonlar qoʻlidan tushmaydi.

2 BOB

2.1. Maqollarda shevaga xos so'zlar

Bizga ma'lumki, Abdulla Qodiriy buyuk romannavis adibdir. Uning har bir romanida xalqchilik, o'zbek tilining nozik jilvalari o'z aksini topadi. Shu jumladan, "Mehrobdan chayon" romanida ham xalqona so'zlarning, barqaror birikmalarning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Barqaror birikmalar deganda maqollar, matallar va iboralar tushuniladi. Maqollar grammatik jihatdan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o'tkir mazmunli ko'chma ma'noda ham o'z ma'nosida ham qo'llanuvchi xalq iboralaridir.(9)

Maqollar nutq ta'sirchanligini amalga oshirishda fikrni lo'nda va aniq ifodalashda juda qo'l keladi. Abdulla Qodiriy ham maqol va matallardan asarda juda o'rinli foydalangan. Bu orqali asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashga xizmat qilgan. Masalan: Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Maxdumning xasislikka o'xshash holatlari albatta bor edi.

Bu maqolni keltirish orqali adib Solih Mahdumning bekitib bo'lmaydigan xasis inson ekanligini juda ustalik bilan tasvirlagan. Bu vazifani albatta xalq maqoli bajargan. Asarda adib ba'zi maqollarni qahramonlar tilidan keltirgan va qahramon xarakteriga moslab maqolni sodda tarzda yoki aksincha murakkablashgan shaklda qo'llagan.. Masalan:

-Kina degan ro'ymolni yuvib quritguncha-dedi Safar bo'zchi...

Bu jumladan arazning umri qisqa, ro'molni yuvib quritguncha degan ma'no anglashiladi. Asar qahramoni Safar bo'zchining tilidan aytilgan bu maqol asarning xalqchilligini qahramonlarning har biriga moslab qo'llanilgan o'ziga xos nutqqa ega ekanligini ochib bergan.

Adib ba'zi maqollardan qahramon xarakterini ochib berish uchun ustalik bilan foydalangan. Va o'sha zamon muhitiga moslab maqolning ba'zi so'zlarini o'zgartirgan.. Va albatta qahramon tili, shevasiga moslab qo'llagan. Masalan:

Hatto ba'zi vaqt ikki og'iz so'z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar, **“mishiq oftobga tekin chiqmaydi, sizdan aqcha so'rashqa iymanganda, menga bir narma tashlab ketsangiz o'zim unga berib qo'yarman”**(151-bet). Solih Mahdum nutqidan olingan bu jumladagi mishq oftobga tekinga chiqmaydir maqoli hozirgi tilimizda qo'llanilayotgan “Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” maqoli bilan mos keladi.

Bu maqol orqali adib Solih Mahdumning xasisligi bilan birga ta'magirligini, Anvarning nomidan ish qilib ham daromad topishidan toymaydigan inson ekanligini tasvirlagan. Maqollardan tashqari asar ekspressivligini oshirish uchun matallar va hikmatli so'zlardan ham foydalangan.

1.Shunga o'xshash Maxdumning onasi Mohlaroyimning kasali go'yo “dard ustiga chipqon” edi.

2.Chunonchi, ushbuning misoli turkiyda ham bor: **“Chumchuqdan qo'rqib tariq ekmagay”** deb qo'rqqan kishilarni masxara qiladirlar. Bu jumladagi “chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi” matali Maxdum tilidan Anvarga aytilgan, Anvarning adolatsizliklarga tobi yo'qligini Maxdum o'zicha tushungan, mansabdan bosh tortayotganligini qo'rqqolikka yoygan. Adib matal orqali fikrini mohirona bayon qilgan.

Bundan tashqari asarda Abdulla Qodiriy chiroyli tarzda hikmatli so'zlarni ham keltirgan.Masalan:

Shayxi Sa'diy aytkancha, dunyoda hayotidan qo'l yuvg'uchidek tili uzun kishi bo'lmas. Shayx Sa'diy tilidan

keltirilgan bu hikmatli soʻz orqali oʻlim bilan yuzma-yuz Anvarning holati yoritib berilgan. Adib baʼzi oʻrinlarda maqol bilan bir oʻrinda hikmatli soʻzni ham keltiradi. Bu usul qahramon nutqining yanada taʼsirchanligini oshiradi:

-Yaxshilik qil, daryogʻa tashla, baliq bilmasa holiq bilur deganlar. Fuzuliy: “Dahr bir bozordir, har kim matoin arz edar” deb juda toʻgʻri soʻzlaydir. Shunga oʻxshash biz ham oʻzimizda boʻlgan matoni bozorgʻa solamiz...”

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida juda koʻplab maqol va iboralarga duch kelamiz. Masalan:

- 1.”Koʻrpangga qarab oyoq uzat, mullabachcha!”(186-bet)
- 2.”Bir qoʻchqorning boshi ketkuncha, minglab qoʻyning boshi kesilar emish”(186-bet)
- 3.”Har kim tilagan oshini ichadir”(184-bet)
- 4.Yaxshilik qil daryogʻa tashla; baliq bilmasa ,xoliq biladur”(159-bet)
- 5.”Oshni sust egan kishi, ishda ham sust boʻladir”(159-bet)
- 6.”Bir oʻq bilan bir necha ishni qilmoq”(158-bet)
- 7.”Qoʻli sust kosibdan, oyogʻi chaqqon gadoy yaxshi”(157-bet)
- 8.”Mishiq oftobga tekin chiqmaydir”(151-bet)
- 9.”Past hamisha pastligini qiladir”(101-bet)
- 10.”Sut bilan kirgan-jon bilan chiqar”(101-bet)
- 12.”Koʻbchilikning duosi koʻl”(72-bet)
- 13.Yolgʻonni ham yamlamay yutadigan”(71-bet)

- 14. Qush tilini qush biladir”(49-bet)**
- 15. “Laylaklar ichida bemahal g’urrak”.(47-bet)**
- 16.”Hay etti,huy etti, ikki koski to’y etti”(13-bet)**
- 17.”Dumingga qumg’on bog’lash”(196-bet)**
- 18. “Egri to’nkaga-egri to’qmoq”.(196-bet)**
- 19.”Xotin kishining charxi bilan o’chog’igv tagma.(202-bet)**
- 20.”Iynani tuyadek,xosni xaridek ko’rasiz”(216-bet)**
- 21.”Sallalik eshaklarning diringlashi og’ilxonagacha”.(216-bet)**
- 22.”Kesak otib arslonni engmoqchi bo’lgan”(216-bet)**

Xulosa qilib aytganda adib maqol va matallarni ham qahramon tilida so’zlatib, xalq jonli so’zlashuv tilidan, ya’ni shevaga xos so’zlardan foydalanib yuqori natijalarga erishganligini ko’ramiz.

2.2.Noyob iste'dod sohibi.

Ko'ngil mahzanining qulfi til

Va ul mahzanning kaliti so'z.

(A.Navoiy)

Darhaqiqat, so'z «ko'ngil mahzani»ning ham, tabiat va jamiyatdagi barcha hodisa va voqealarning ham kalitidir. Yozuvchi biror ob'ektni tadqiq etar ekan, uni so'z yordamida gavdalantiradi. Yozuvchi har bir so'zni asar mazmunini oydinroq, g'oyasini to'laroq anglatishga xizmat qildirish xususida jiddiy zahmatkashlik bilangina bunga erishish mumkin. Abdulla Qodiriy so'zning g'oyat katta imkoniyatga ega ekanligini, uning tasvirda turli holatni ifodalashi, turli rangda tovlanishi va albatta ma'nodor, salmoqdor bo'lishi bilan kitobxonni asarga maftun ettiradi.

Abdulla Qodiriy xalq tili xazinasini puxta egallagan, har bir so'zni nozik, ma'nodor qilib qo'llaydigan darajada o'zlashtirgan. Shuning uchun adibning tasvirida har bir so'zda hayotiylik mujassamdir. Yozuvchi so'zni to'g'ri ma'noda qo'llaganda ham, ko'chma ma'noda ishlatganda ham o'sha tasvirning butun asosini davrni, vaziyatni, voqea davom etayotgan o'rnini, qahramonlar saviyasini nazardan qochirmaydi.

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyoti tarixi ko'lamidagina emas, balki Turon xalqlari adabiyoti tarixida ham alohida vaznga ega bo'lgan atoqli yozuvchidir. U avvalo badiiy ijod sohasida tangri juda kamdan kam qalam sohibiga in'om etadigan iqtidorga ega bo'lgan. Shu noyob iqtidorni avaylab-ardoqlab balog'atka etkazgan. U o'z xalqini shu nodir iste'dodning lazzatli mevasidan bahramand etgan beg'araz farzandi edi. Abdulla Qodiriy o'z g'oyaviy maqsadlarini

ifoda etuvchi voqea hodisalarni shoirona nafis va nozik nazokat bilan tiniq va nurli satrlarda jilvalantiruvchi tug'ma nazokatga ega bo'lgan bir daho edi. Adib o'z ezgu maqsadi yo'lida "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon"day tengsiz asarni yaratishda, tashna kitobxonga uning chanqog'ini qondiruvchi bunday ma'naviy ozuqa in'om etishda, duch kelishi mumkin bo'lgan katta mehnatdan cho'chimaydi. Cheksiz iztirob va izlanishlarga. Yuksak jismoniy-ma'naviy qudratini ulkan qalb qo'rini hayotning har tomonlma etilgan barkamol qirchillama yigitlik davrini baxshida etadi. Natijada kitobxonni ruhiy larzaga, iztirobga soluvchi, kezi kelganda ham kuldirib, ham yig'latuvchi, o'rni bilan behad hissiyotlar bag'rida orom ato etuvchi "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon"lar yorug' er yuzini ko'radi. Abdulla Qodiriy asarining xalq orasida keng tarqalishi va hurmat qozonishida dastlab adabiy-badiiy ijodning barcha o'ziga xos spetsifikasi – badiiy obraz yaratish usuli, konflikt, syujet, asar kompozitsiyasi mazmun va shakl birligi kabi barcha shartlari va qoidalariga to'la rioya etish va birligini ta'minlash orqali erishadi. Adib asarlarining xalqchilligini ta'minlagan omillar shular bilangina chegaralanmaydi. Adib o'zining yuksak ideallarga yo'g'rilgan insonparvarlik g'oyalarini kitobxon ongiga to'la muhrlashda tilimiz xazinasida mavjud bo'lgan rang-barang tasviriyy vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Bular uzoq tarix davomida sayqal topgan bejirim xalq iboralari, maqollari va asar tilida uchraydigan mahalliy xalq tilidir.

Bugun hech kimga sir emaski, biz tarixiy o'tmishni, turli xil davrlar mustabid tizimlarning yirtqich qonunlari tufayli azob chekkan xalq turmushini yaxshi bilsak, mamlakatimizda mustaqillik boshlangan ozod va baxtli hayot qadriga yaxshiroq etamiz.

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" tarixiy romanini yaratar ekan, ana shu maqsadni ko'zlagan, xalq kechmishining realistik manzarasini ifodalash orqali xalqimizni Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga o'z hissasini qo'shishni o'ylagan, albatta.

1928 yilda yozilib, 1929 yil boshida kitobxonlarga taqdim etilgan bu roman Abdulla Qodiriyning realizm asoslarini tinmay egallab borgan yozuvchi, katta iste'dod sohibi ekanligini ko'rsatadi.

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda, bir tomondan, Buxoro amrlari bilan Qo'qon xonligi o'rtasida, uchinchi tamondan, har bir xonlik doirasida to'xtovsiz o'zaro feodal urushi davom etardi. Bu urushlar o'lkani vayron qilar, xalq hayotini yana ham og'irlashtirar edi. Ana shunday feodal urushlarning biridan so'ng, 1845 yilda Sherhali xonning o'n uch yoshli o'g'li Xudoyor Qo'qon xoni qilib ko'tariladi. Tariximizning shu eng kir, eng qora kunlarini aks ettirish, "Turkiston feodallarining keyingi vakili bo'lgan Xudoyorxonning, - deb yozgan edi Abdulla Qodiriy, -o'z xohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand—kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin – qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi keluvchilarga, tilasa, kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi romanning mavzuidir". Aniqrog'i, romandagi ko'p voqealar tarixdan olingan. Chunonchi, asar qahramoni Anvarning—Xudoyorxon o'rdasida xizmat etgan yigitning boshidan

kechirganlari bayon qilinadi. XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy jarayon uchun xarakterli bo'lgan bu voqea-hodisalar romaning asosiy materialini tashkil etadi.

Demak, aniq hayotiy material asosida yaratilgan “Mehrobdan chayon” romaning etakchi maqsadi, V.G.Belinskiy ta’biri bilan aytganda, “jamiyat hayoti manzaralarini tasvirlash”dir.

Romanda tasvirlangan jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi kuchlar – ikki dunyo kishilar mavjuddir. Bulardan biri –o’z xohishi yo’lida har qanday razillikdan qaytmaydigan Xudoyorxon va uning yaqinlari—beklar, boylar, ayniqsa, insonlik hissini yo’qotgan ulamolar bo’lsa, ikkinchisi, shu qora kuchlarga qarshi mehnatkash xalqning yuksak fazilatlarini , kelajakka bo’lgan intilishlarini o’zida mujassamlashtirgan oddiy kishilardir.

Romanning bosh ijobiy qahramoni Anvardir. U mehnatkash oilada dunyoga keladi. Anvarning otasi va onasi muhtojlikda vafot etib ketadilar. Etim go’daklar kishilarga topshiriladi. Anvar qashshoqlik va etimlak mashaqqatlarini tortadi, maktabdor domila Solih maxdumning oilasida “etimona boshini quyi solgan” holda asrandi o’g’il bo’lib qoladi.

“Anvar kelishgan, do’ndiq... zehinli” bola edi. Yozuvchi juda yoshlikdan Anvarda tug’ilgan va kamol topayotgan xislat va fazilarlarni samimiy xayrixohlik bilan ifodalaydi. Yozuvchi buni uning tilida uchraydigan shevaga xos so’zlarni qo’llash orqali ham ifodalaydi. Bu asarda shevaga xos so’zlardan unumli va o’rinli foydalanadi.

Masalan: g'ovg'a, bo'g'joma, guppi, chaqich, ishton, mundan, tuppaa, sho'rba, shalg'am, qovoq, davara, buryo, yandi, ubra, jaz, elli, domad, novorachi, is-charog', havli, uhda, baqa, allanuchka, minan, manimcha, og'am, domangir, enasi, reza, kashkul, ayam, jelatka, toqcha, aqcha, chaqosiz, mishiq, bachcha taxig'a, o'qug'chi, so'yinchi, kalid, ahmaq, baxmal, ho'rmat yoppa, chiqadig'an, arza-parza, arzachi, eshib, xudda, to'sundan, daricha, oqcha, bachcha, chol, kuyav, mumsuk, opcha, ihnaliq, mursak, buloqi, biljirab, gun-gurt, zarcha, zafar, irin, jevak, kiyiz et, atriyyot, adim, shipka, tuslik, nomzad, tunovi, sufa, bobosir, yatim, juvon, bala, tegiga, parchasini, nuqul boyagi, yordam, qog'an, og'an, eliy, bo'g'ani, ashunga, gustoh, go'dak, kinnachi, pochcha, manglay, guzar, meshinib, dahliz, chaqirdingizma, yaqshima, jigit, kimxob, xil'at, onglashmovchilik, og'a, jazzasi, sarpoychan, xatim, utta, tunovi, adim, kina, apichlab, ro'ymol, boya kabi....

Abdulla Qodiriy katta so'z san'atkori va ustasi, xalq jonli tilining yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o'z asariga singdirgan buyuk allomadir. Yozuvchining yana bir mahorati shahar shevalariga xos iboralarni personajlar nutqiga nihoyatda ustalik bilan "edirgan"ki bu bilan ham salbiy, ham ijobiy xislatlarni mahorati namoyish etiladi:

-Iymanma, Kumush Otin, bugun-erta bizga yangi kelinsan, uchinchi kundan boshlab sen mug'ombirning boshingda tegirmon yurgizishni o'zim yaxshi bilaman!-dedi O'zbek Oyim.

Ushbu ibora haligacha shevalarimizda saqlanib qolgan bo'lib, ma'nosi O'zbek Oyim shunday kelinini Marg'ilonda yurib, Toshkentga mehmon bo'lib emas, farzand, qiz bo'lib kelganiga ishora qilinmoqda. Abdulla Qodiriy mavjud so'zlarni tanlaydi, saralaydi, nutq davrasida alohida yuk ko'taruvchi vositani tanlab, topib ishlatadi.

-Nega bu erda tegirmonchining ishsiz qolgan eshshagiday junjayib o'lturubsan, Sodiq-dedi bir yigit. Boshqalar buning so'ziga kuldilar. Bizga ma'lumki, shevadagi so'zlar juda oddiy va sodda yigitning gapidagi jo'njayib, junjikib, g'ujanak kabi ma'nolarda qo'llanilayapti.

Abdulla Qodiriy katta so'z san'atkori va ustasi xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o'z asarlariga singdirgan buyuk allomadir

Adib qahramonlarining xarakterli xususiyatlarini to'laqonli ochish maqsadida «erlik» so'zlar, sheva xususiyatlarini personajlarning o'z tili bilan gapirtiradi, dedik yuqorida.

-Sening o'rningda bo'lsam, bilasanmi nima qilar edim, Zaynab,- dedi Xushro'y,-dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni, yuz tomchi zaxar bilan qo'shib tashlar edim.

Xullas, ulkan so'z san'atkori Abdulla Qodiriy xalq tilining imkoniyati cheksizligini namoyon etadi. Ularda voqelikning xarakterli nuqtalarini mujassamlashtirib, ifoda mantiqini kuchaytiradi, tasvirga aniqlik va ixchamlik baxsh etadi.

2.3.Xalq shevalari – soʻz boyligini taʼminlovchi manbaa Raʼno tilida uchraydigan shevaga xos soʻzlar

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-maʼnaviy qadriyatimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz **I.A.Karimovning “Jamiiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”(2).**

«Mehrobdan chayon» romanidagi asosiy ijobiy obrazlardan boʻlgan Raʼno obrazining tahlilini Abdulla Qodiriyning bu obrazni yaratishdan asosiy maqsadini bildiruvchi quyidagi parchani oʻqib berish bilan boshlash mumkin: «Raʼnoning jasorati, - deydi yozuvchi, - xonga qarshi isyoni... oʻz zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Raʼno yoshlik qizlarimizga ibratdir».

Abdulla Qodiriyning Raʼnoga nisbatan samimiy munosabati portretini chizishda yorqin koʻrinadi.

«Raʼnoning ismi jismiga yohud husniga juda muvofiq tushgan edi... bu goʻzal qiz och raʼno gulining tusida yoki oq-sariq tusida yaratilgan edi...sochi gungurt – qora, yaʼni quyoshsiz joylarda qora koʻrinsa ham, quyoshda bir oz sargʻish boʻlib koʻrinar edi... jodu koʻzi kishiga qattiq qaraganda, qoralikdan boshqacha yana bir turli qizgʻish nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutashgan kabi koʻrinsa ham, koʻndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyilib koʻtarilish ajratib turar edi. Burni

hech bir munaqqidga berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turgan nafis erinlarining yuqorigi qismida sezilar sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi cho'ziq emas, oykulcha deb ham bo'lmas; kishiga kulib qaraganda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil bo'ladi, go'yo bizga chin ra'no guli ochilgan holatda ko'rinar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillari orqa-o'ngini tutib yotar, qaddi uzunlik bilan qisqaliikning o'rtasi, do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari; har holda, bu qiz yolg'iz Qo'qondagina emas, umuman Farg'onaning kuylariga qo'shilib maqtalaturgan edi».

Abdulla Qodiriy asar qahramoni tasvirini berishda shevaga xos so'zlardan unumli foydalanadi. Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llaydi.

Ra'no maktabda Alisher Navoiy, Amiriy, Fazliy, Sa'diy, Xo'ja Hofiz, Mirzo Bedil asarlarini, «Devoni Fuzuliy», «Layli va Majnun» dostonlarini, arab tili gammatikasini o'qib, o'rgandi. U o'zi yaxshi ko'rgan shoirlar she'laridan to'plam tuzadi, o'zi ham she'rlar yozib mashq qiladi.

Maxdumning xotini Nigor oyimga ruxiy azob berishi ham Ra'noni g'azablantiradi. U uy ishlarida, bolalarni o'qitishda onasiga yordamlashadi.

Abdulla Qodiriy Ra'noning Anvarni sevishi sabablarini romanda yorqini fodalagan. Romanda tasvirlanishicha, Ra'no Anvarni, u faqat xusnda emas, balki ahloq – odobida ilmda kamolot egasi bo'lgani uchun sevadi, ishonchli, dilkash kishisi sifatida uning haqida g'amxo'rlik qiladi, har bir harakatida, muloqatida Anvarga

bo'lgan sadoqatini, sevgisini namoish etadi. Shu fazilatlari bilan Anvarni o'ziga maftun etadi.

Abdulla Qodiriy Ra'no bilan Anvaning she'r orqali o'z sevgilarini bir-birlariga izhor etib turganlaridagi holatlarini tabiat bilan uyg'unlikda ifodalab deydi: «... oy ham bir oz nurlanib, turmushga birga qadam bosgan bu ikki yoshning hozirga hollaridan kulimsiragandek ko'rinar edi. Boyagidan bir muncha kuchaya tushgan shamol gulni gulga qovushtirib, go'yo bu ikki yoshga, «Siz ham bilan shu gullar kabi qovushing» degandek bo'lar edi».

Ra'no to'y kunlarini aytib, Anvarni quvontiradi. Ammo ular o'rtasidagi ahd-paymon, sevgi qarshilikka uchraydi.

Abdulla Qodiriy asarda Abdurahmon domla boshliq qora guruhlarining ig'vosi, qabihligi tufayli Ra'no bilan Anvarning boshlariga tushgan azobni tasvirlashda Ra'nodagi qat'iylik, jasorat xislatini, sevgilisiga sadoqatini, xonlikka nafratini yorqin ifodalagan. O'qituvchi tahlilda Ra'nodagi bu xususiyatlarni Anvarga yozgan maktubidan parcha o'qib berish bilan ham yoritsa bo'ladi. Ra'no Sultonlining uyida yashab turgan Anvarga yozgan javob maktubida o'z iztiroblarini shunday ifodalaydi: «Va'da berish oson, **uddasi** mashaqqat; Bundan so'ng shuni ham xotirda tutingiz. Og'ir daqiqalarda arziyas gapni ko'ngilga olish siz kabi oliyjanoblar ishi bo'lur, deb o'ylasin! Baxtsiz bir qizning najoti uchun, tebranmadingiz deb sizni ayblab bo'lmas; biroq, baxtsiz Ra'no tahlika ostida qolganda, uni bu kun-erta bir fojea kutganda vafolik deb bilgan bir kishisidan bunchaliq jafo ko'rishi naqllarda o'qilganmi, afsonalarda to'qilganmi? Shu qadar gunohim bor emish, deb xafa bo'lmangiz, Anvar aka. Basharti shu gunohlarning yuvilib ketishini tilasangiz, sizga bir xizmat bor, ham sizning uchun eng oson xizmat; ertaga chorshanba kechqurun, **tilasangiz**—ochiqcha, **tilamasangiz**—

yashrincha bo'lsa ham, biznikiga kelingiz, men bilan oxirgi marotaba vidolashingiz».

Ra'noning bu maktubi Anvarni kurashga, yigitlik sha'niga munosib ish qilishga undaydi. Bu maktub tilida uchraydigan shevaga xos so'zlar asar tilidagi ta'sirchanlikni, jozibani yanada oshirgan.

Xudoyorxonga bo'ladigan to'y—juma kuni Ra'noga mudhish kun edi, u o'zini go'yo jar yoqasida turgandek his qiladi. Anvar to'g'risida xayol surib, shu vaqtda o'zida unga qarshi kek qo'zg'alganini his qiladi.

Anvar Qo'qondan ketmoqchi bo'lganini aytganda, Ra'no u bilan ketishga xohish bildiradi.

Ra'noning bu ahdida o'zbek bilan-qizlarining xon zulmiga, adolatsizligiga qarshi ko'targan isyon ifodalangan.

Ra'nodagi jasurlik, isyonkorlik uning Anvar bilan Toshkentga ketishida o'z ifodasini topgan.

Ra'noda faqat Anvarni sevgani tufayli emas, balki u bilan o'tkazgan suhbatlari orqali o'sha davrdagi xonlik tuzumiga, adolatsizlikka nisbatan norozilik, nafrat kuchayadi. Anvar o'sha davrdagi muhitni yaxshi bilgani, qalbi baxtli hayot orzulari bilan to'liq bo'lgani uchun Ra'no uni butun vujudi bilan sevadi, boshiga og'ir kulfat tushganda ham Anvar bilan birga bo'lish uchun kurashadi. Ra'no bilan Anvar o'rtasidagi muhabbat yoshliklaridan boshlanib tabiiy ravishda mustahkamlanib boradi.

Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» asarida Ra'no obrazida sharq xotin-qizlarining o'tmishdagi hayotini, iste'dodini, ulardagi jasorat, Ra'onning o'z davrining bilimli, savodli qizi sifatida ifodaladi.

Solih maxdum-1230-1290 (hijriy-1811-1871) yillarda Qo'qonda “Firdavs monand” da yashagan imom, maktabdor domla.

Maxdumning bobosi Qo'qonda hukmronlik qilgan Olixon va Umarxon davrlarida muftilik, qozilik mansablarida xizmat qilgan, otasi esa Qo'qonning

Ma'dalixon madrasasida mur'darris bo'lgan, Buxoro xoni Bahodirxon tamonidan had etilganlardan biri bo'lib, yel-yurt ichida tinchligini yo'qotgan.

Maxdum otasi vafot etganda 20 yoshda edi, u og'irroq kasbni udda qilolmaganligi sababli, uyida maktab ochib, mahalla bolalarini o'qitadi. Dastlabki yillarda ishi yurishmaydi, keyinchalik, maktabda bolalar ko'payishi bilan, turmush bir muncha yaxshilandi.

22 yoshida onasi uni xon o'rdasida ishlaydigan mirzolardan birining Nigor ismli qiziga uylantirib qo'yadi.

Abdulla Qodiriy Solih maxdum portretini shunday chizadi : "... bo'ychan, ola go'sht, siyrak mo'y, oq tan istarasi issiq bir domla edi. Yoshi ellikdan oshgan, soch va soqolida birmuncha oqlar ko'rinar edi. Kishi bilan so'zlashganda, ayniqsa bir narsadan taajjublanganda, siyrak va lekin to'g'ri, baquvvat o'sgan saqolini tutamlab, unng ko'zini bir oz qisiq qarar, odat qilgandan bo'lsa kerak, gap orasida "habba" degan so'zni ko'proq ishlatar edi".

Abdulla Qodiriy Solih maxdumning xasisligini ko'rsatish uchun daromadi durus bo'lishiga qaramay, yirtiq –yaamoq kiyim kiyib, qishin-yozin bitta sallani o'rab, oyog'ida yirtiq kavish-mahsi bilan yuradi deb tasvirlaydi. Mahalla ahli yaamoq bosgan choponiga "mol topar" deb nom qo'yadi.

Maxdum oila a'zolarini ovqatdan va kiyimdan siqadi. Bir oyda bir marta kir yuvishga ruxsat beradi, bu tartib buzilsa, xotini Nigorani "kiyimni tog'oradi chiritasan", deb, urishadi. Osh bo'lgan kundagina bozordan ozgina go'sht keltiridi. Qovoq somsa yopishni buyurganda, Nigora oyimga **"yog'ni kam sol, qovoqning tamini buzadir"**, deb, ta'kidlaydi. Uyda non yopmaydi, oila a'zolarini bolalar keltirgan "payshanbalik" non bilan ta'minlaydi, qotgan nonni eyishga majbur qiladi.

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida Xudoyorning xalq boshiga og'ir musibatlar solgan asosiy aybdori sifatida fosh etadi. Xudoyor

hukmdorlik qilgan sakkiz yillik davrni “xonlik isteʼbdodining achchiq zulm va tarixini jonsiz qora sahifalarini tashkil etadilar”,-- deb taʼriflaydi. Abdulla Qodiriy Xudoyorning sakkiz yil davomida xalqqa oʻtkazgan zulmani, firibgarligini, axloqiy buzuvchiligini, qizlar baxtini paymol etganini aniq misollarda koʻrsatadi. Tahlida keltirilgan shu misollar yordamida Xudoyorning jirkanch qiyofasini ochishga eʼtibor beriladi.

Xudoyor Qoʻqonning obod qilish bahonasida “Oqsaroy”, “Bogʻi eram”, “Madrasai oliy”, “Dahmai shahon”, “Hokim oyim madrasasi” kabi sarolarni qurdiradi. “Ulugʻ nahr”, “Xon arigʻ”ni qazdiradi. Ularning hammasini u mehnatkash xalqning kuchi, mehnati, puli hisobiga amalga oshiradi.

Roman haqida berilgan bilimni yakunlashda oʻquvchilar eʼtibori, asosan, Abdulla Qodiriyning uslubiga tortiladi. Maʼlumki, Abdulla Qodiriy haqiqiy goʻzallikni insonning ham tashqi, ham ichki—maʼnaviy goʻzalligida koʻradi. Romanda Anvar va Raʼno bila shunday goʻzallikning timsolidir. Anvar “mujassam bir vijdon, togʻ yurak bir yigit”dir. Kamtarlik, koʻrkam isteʼdodlilik uning yuksak fazilatidir. Raʼno ham “ismi jismiga, xusniga juda muvofiq” qiz. Raʼno faqat husnda emas, balki ahloq odobi, bilim va isteʼdodi bilan ham goʻzal.

Abdulla Qodiriy fikricha, yomon odam koʻrinishida qanchalik kelishgan boʻlishidan qatʼi nazar, odamlar koʻziga sovuq va xunik koʻrinadi. Abdurahmon domla bila shunday xunuklarning yorqin timsolidir. U “manfur koʻzli” “qabih niyatli” odam, “ifloslikda, gʻiybatda gʻoliblikdan xursan boʻladi, kulib turadi”, “erga qaragan holda ” iljayadi.

Abdulla Qodiriy shunday deydi: “Kishi avvalo bilan yoki pes boʻlmasin; boʻldimi, betdan boʻlmasa—yelkadan, qoʻldan suv ochmasa, oyoqdan, har holda oqaveradi”. Abdurahmon yoshlikdan “iflos bir moziy” (zamon)ning mahsuli sifatida ahloqsiz boʻlib etishadi, Birga boʻlganda – imomlikda ham maʼnaviy tubanlik unga doimiy hamroh boʻladi.

Abdulla Qodiriy uslubiga xos bir xususiyat—qahramon obrazlar xarakterini ularning o'z tili orqali ochishdir. Mahdum, Abdurahmon, Xudoyor kabi obrazlar xarakterining o'z nuqtalari orqali fosh etilishi fikrimizning dalilidir.

Abdulla Qodiriy romanda qahramon obrazi xam ularning xarakterini, o'y fikri, maqsadini ochib tashladi. Masalan, Solih maxdum Anvarga, agarda u bosh munshiylikni qabul qilmasa, doimo “otning keyingi oyog'i” bo'lib yurishini aytadi, “osilsang ham baland dorga osil”, deb maslahat beradi. Anvarning yozib bergan arizalari uchun odamlardan pul olmaganidan g'azablanib, “Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi” maqolini keltiradi. Solih maxdum nutqida ishlatiladigan xalq maqollari uning mol dunyoga o'chlik, vijdonsizlik xislatlarini fosh etish uchun xizmat qilgan.

2.4. “Mehrobdan chayon” romanida shevaga xos soʻzlarning qoʻllanishi

Abdulla Qodiriy katta soʻz sanʼatkori va ustasi, xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, oʻz asarlariga singdirgan buyuk allomadir. Uning har bir romanida xalqchilik, oʻzbek tilining nozik jilvalari oʻz aksini topgan. Shu jumladan “Mehrobdan chayon” romanida ham xalqona soʻzlarning goʻzal namunalarini koʻrishimiz mumkin. Uning qaysi asarini oʻqimang har satri va har varagʻida shevaga xos soʻzlar – dialektizmlarga duch kelasiz. (“Dialektizm” soʻzi grekcha boʻlib, badiiy asarda stilistik maqsadlarda, asarda ishtirok etgan personajlar nutqini tavsiflash, maxalliy koloritni koʻtarish uchun jonli xalq tilidan kiritilgan soʻzlardir).

Abdulla Qodiriy ham oʻz asarlarida qahramonlarning xarakterli xususiyatlarini toʻlaqonli ochish maqsadida “erlik” soʻzlar sheva xususiyatlarini personajlarning oʻz tili bilan gapirtiradi: *-Mamatqulchi, domla pochchalarning soʻziga yaxshi quloq solib **tigʻnab** olgan kishi, bemalol jannatga kirib **ketavuradi-da....** Sen ham ularning soʻzini **tigʻnab** olasanmi?*

Yozuvchining mahorati shundaki, yirik asarlarida asosiy qahramonlar – Otabek, Kumushbib, Anvar, Raʼno turli joylardan boʻlib, ikki shevaning vakillaridir. Bulardan tashqari saroy xizmatkorlari, saroy atrofidagi kishilar ham turli shevaga mansub kishilardir. Asarni oʻqigan kitobxon oʻzini shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib qahramonlar orasida oʻzini his etadi: *-Sen bilan men boʻlsak, qattiq nonni ham eya beramiz; **jazzasi**(chorasi demoqchi) choyga boʻktirishda.* (“Mehrobdan chayon”.78-bet) – *Dehqon Mahdumning hurmatiga oʻrnidan turib, qoʻl qovushtiradi: -Oʻn uch tanob erimiz bor edi, taqsir. Chamasi **yongʻish boʻgʻonda***

(yanglish, xato bo'lgan demoqchi), *o'ttiz uch tanobga haq sog'onlar(solganlar)*. Men shunga **arza** (ariza demoqchi) **yoziyayma**, ...*deb*(-mi affiksi ko'p o'rinlarda –ma shaklida qo'llangan va bu bilan o'sha davr xalq jonli tilini ifodalagan). (“Mehrobdan chayon”.128-bet)

Ko'rinadiki, “Mehrobdan chayon” romani personajlarining ko'pchilik qismi Qo'qon atrofida yashovchi o'zbek-qipchoq shevalari vakillaridir. Lekin hozirgi shahar shevalariga xos dialektizmlar qardosh qirg'iz, tojik tiliga xos so'zlar, fonetik, morfologik va leksik elementlar ham o'z o'rnini va me'yorida qo'llangan. Faktlarga murojaat qilamiz:

-Ebi, kimni o'ldirding?

-Ota kasbim odam o'ldirish emas.

-Inisi bergan, -dedi Sharif,-Qani, ining bilan ko'rishdingmi, Qobel?

-Ko'rishdim.

-Odami **nag**'z bo'lg'an?

-Odami **nag**'z.

-Akun shu qochib yota beraykan-da,-dedi Rahim. –Biroq chora boqsin-da, aytmading-chi, axi? (“Mehrobdan chayon”.265-bet)

-Olmaysanmi, pala'nat? (padarlanat demoqchi)

-O'zlaringga deyappan-ku, inim senlarga atab berdi. (“Mehrobdan chayon”.265-bet)

“Yangi Mirzo malaka hosil qilguncha vazifa emas ekan (128-bet) Anvar Ra'noga qarab:

-O'ltur,-Ra'no.

-Tug'ulg'ondan so'ng o'sish, o'sgandan so'ng ikkov-ikkov bo'lib yashash bor.(114-bet)

Anvar tomonidan aytilgan ancha silliq va sayqallashgan bu so'zlarda mirzolik tufayli saroy adabiy muhitining ta'sirida ekanligi ko'rinadi. Xudoyorxon saroyi tili Qo'qon-Marg'ilon shevalari asosida qurilgan.

-Men zeriktirmayman.... Qanday **osh** (ovqat demoqchi) qilay?

-Qaysi xilini buyursam ekan? – deb o'z-o'ziga savol berdi, Anvar. – **Ubraga** uquving yo'q, palovni lanj qilasan, **samsani** yopolmaysan, **tuppani** kesalmaysan, senga qayla buyurg'andan, atala qil degan yaxshi.

-Men uquvsiz bo'lsam, o'zingiz **osh** qiling.(202-bet)

Asardagi **o'xshaldi**(135), **eshshak**(134) **umur**(135), **sarjaz**(135), **chimxo'r**(135), **to'ppi**(163) kabilar shahar shevalariga xos so'zlardir. Bulardan tashqari so'z tarkibida undoshning (qo'sh undoshni) qo'llash orqali emotsionallik va ekspressivlikni kuchaytirgan:

-**Turpoqqa ag'nadingmi, eshshak! Attang-a, essiz kiyim. Hoy, bachcha taloq** kabilar.

Asarda vodiya xos forsha-tojikcha, arabcha o'zlashmalar o'rni bilan ishlatilgan, bu o'z navbatida asarning jozibadorligini oshirgan: -O'zi yaxshi mulla bo'lgan ko'rinadi, **zakki tab' yigit** (137-138) –Ana xolos! **Az karnaychi yak puf!** (139-bet).

Yozuvchining yana bir mahorati shahar shevalariga xos iboralarni personajlar nutqiga nihoyatda ustalik bilan “edirgan”ki, bu

bilan ham salbiy, ham ijobiy xislatlarni yorqin ochish mahorati namoyish etiladi:-Anvar bilan Ra'noning tuprog'i bir joydan olingan(137-bet) Mehmonxona dahlizida qo'lida **choydish** (choyduvush) ko'targan Ra'no ko'rindi...(221 –bet) Anvar o'rnidan turib **dahlizga** chiqdi, qo'lida **obdasta, dastsho'** ko'tarib Ra'noni yonig'a keldi.(222-bet) Anvar **qoziqdan** sochiq keltirib berdi(222-bet). Ra'no ko'zini tizzasiga tikib, qo'li bilan **sholcha** ipini chirmab o'ltirar edi(223-bet) Chunki xotin Ra'noni ko'rib qolgan, shuning uchun **bo'g'oz** xotin bilan chiqib ko'rishishi Ra'noga lozim **bo'lg'an** edi(228-bet). To'rdagi **toqchadan** ustiga ko'k sir berilgan bir davotni olib qaradi(227-bet).Chamasi ular oshiq-ma'shuq, baloxo'r xon loaqal shunga **cho'vagini** tiqmasa nima qilar edi(230-bet).**Tunqotar** emish yonig'a keldi.-Siz shundamisiz, **yanga?**(Siz shu erdamisiz kelinoyi demoqchi). **Bo'g'an** gap shu aylanay! Safar **tanchadagi** yuzini yashirg'ichig'a qaramasliqqa tirishib daromadi ayvondan bo'lg'an hujra eshigiga chiqdi(265-bet). Ayvonning to'r toqchasida qora **charog'** sasib yonadir(255-bet). Sandal ustig'a **qora charog'** qo'yib, oldig'a kitob yozg'an Anvar Safar bo'zchining **istiqbolig'a** qo'zg'aladi(256-bet). –**Jazzasi choponni** olib tashlashda, mirzam,- dedi Safar **choponini eshib**(257-bet). **Qoziqda** osilg'an **choponini** keltirib, Safarning **yaktakchan** elkasiga yopti(257-bet).- Toza **yaxtak** kiymagan edim, buningiz menga uvol-da, uka,- deb **siqilinqiradi**(257-bet) Siz shu yigitni bu yerga olib kelasiz, o'zi **manim og'am** bo'ladir, xo'bmi?(262-bet).

O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p shevali til bo'lib, bu shevalar tabiiy, adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon"ni yozishda tarixiy shakllar bilan bir qatorda xalq tili, xususan Qo'qon guruh shevalaridan ham ma'lum maqsad uchun o'rinli foydalangan. Xususan, "Mehrobdan chayon" Qo'qon xonligi haqidaligiga e'tiborni qaratsak, bu holning tabiiyligiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan quyidagi matnda bu hol juda ochiq ko'zga tashlanadi:

-Hissiyotg'a qattiq berilibsan, Ra'no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa **ayamga** ham ishonib bo'lmas.

-Paranji ichida borgan Ra'noni tanish uchun hech kimda karomat yo'q, **ayamga** nega ishonib bo'lmasin?

-Iqrorsan, tonmaysan, o'bdan ish!-dedi zaxarxanda qilib xon.- O'luvdan ham qaytmaysan.-Musulmonchilik qig'onsanda!(278-bet) va hokazo.

Qo'qon shevasida tovushlar til oldi va til orqalikda farqlanib, so'z o'zagi tabiatiga qarab qo'shimchalarning ham shunga monandi qo'shiladi.

Badiiy asarda personaj nutqi bilan aloqador bo'lgan bu o'rinda ishora tarzida berilgan bunday izohning o'ziyoq tilga o'ta mas'uliyat bilan yondoshgan yozuvchining tilimiz tabiatini naqadar nozik his etganligiga guvoh bo'lamiz.

A.Qodiriy asarlari nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi, balki o'zbek tilshunosligini ham oziqlantiruvchi o'q ildizi. Teran tomiridir. Ijtimoiy voqealar mazmunini ifoda etuvchi mukammal nasriy

asarlarda ishtirok etuvchi har bir personaj o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, tasvirda fe'l-atvori, o'ziga xos shaxsiy, milliy va insoniy fazilatlari bilan ajralib turadi. Bunday turli tipdagi qahramonlar xarakterini ochib berishda rang-barang tasviriy vositalarga ega bo'lgan badiiy til ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor badiiy til orqali qahramon nutqini individuallashtirish bilan birga uning fe'l-atvorini ham ochib beradi. Bu esa adibning hayotni chuqur o'rganishidan tashqari chinakam, sinchkov va mohir so'z san'atkori bo'lishini, nutqiy izchillikka rioya etishini, eng kichik til dalillariga ham jiddiy e'tibor berishini, shu bilan birga tasvirning haqqoniyligini ta'minlashni talab etadi. Ana shu talablar nuqtai nazaridan "Mehrobdan chayon" romanining g'oyaviy mazmuni va badiiyy tiliga yondoshadigan bo'lsak, adibning ko'zlagan maqsad va niyatiga to'la muyassar bo'lganiga qanoat hosil qilamiz. Adib asarda o'z g'oyalarini kitobxon ongiga to'la singdirishda va unga estetik zavq in'om etishda tilimiz xazinasida mavjud bo'lgan barcha leksik va grammatik vositalardan har tomonlama san'atkorona foydalanadi.

Adib asar tilining mukammalligini ta'minlashda so'zdagi tovushlarning tabiiy ohangdorligi va ohangdoshligiga ham alohida e'tibor beradi. Ularning ifoda imkoniyatlariga ayrica xushyorlik bilan qaraydi. Shu nuqtai nazardan "Mehrobdan chayon" romanida so'z vositasi bilan ish ko'ruvchi san'atkor sifatida emas, balki milliy tilning barkamolligiga g'ov bo'layotgan ayrim sun'iy to'siqlardan yozg'irib, o'z kasbini yaxshi bilgan sinchkov tilshunos sifatida haqli ravishda shunday yozadi: "Xudoyor qipchoqlar ichida o'skani uchun

uning tili o'zbekchadir. Enalarining so'zidagi "ng" harfini "ng'" ravishda qalin so'zlaydir. Bu kungi Farg'ona o'zbeklarida ham(ayniqsa qishloqlarda) yumshoq "ng" o'rnida qalin "ng'" ishlatish ko'b eshitaladir. Hozirgi isloh qilingan harfimizda bu qalin "ng'"ning maxsus shakli yo'qdir. Yozganda (n-g) harflaridan bir tovush yasalsa ham, biroq o'qiganda har kim buni o'z mahrajidan chiqarolmas, yanglish o'yqur. Bu qalin "ng'" o'zbekcha bir necha so'zdagina ishlatilmay ko'b (ellilab) so'zda iste'mol qilingani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladir. Masalan, mashhurlari zang', pang', lang', darang', qalang'i-qasang'i, dang', to'ng'iz, shang'i, to'ng'illamoq, to'ng', to'ng'iz va ang'iz ting' boshqalar....(A,Q. "Mehrobdan chayon"-T.,-1992)

Adib asarlarida ana shu qonuniyatning ham ajoyib namunasini uchratamiz. Masalan:

-Sen bizga **xiyanat qilding'**, it uvli!

-Tuzumni **unutding'**!(278-bet)

-Xiyanatkaring' kim?(277-bet)

-Siz ozod **bo'lding'iz**-dedi xon, devong'a chiqib o'z **ishing'iz'a** qarang! (279-bet)

Jallod xanjarini enggiga **yanib** Anvar ustiga engashti(281-bet).

-**Tegimiz** ariq, **loyg'a** botasan(282).Qo'rg'on kungirasidan Sultonalining **ko'lagasi** (ko'lanka-soyasi) **quyig'a** enggashti(282-bet).Yigirma qadam chamasi borg'ach, Ra'noning **kafshi** loyg'a tishlashib oyog' uzolmay to'xtadi (283-bet).

-**Akun, suvor** bo'ling (otga mining demoqchi)(283-bet).

Domla Niyoz yorlig'ni tugatib, qog'ozni **manglayiga** ko'tardi va ikki qo'llab Xudoyorga uzatdi.(86-bet).

Yaqingacha sheva vakillari nutqida "manglay" so'zi faol ishlatilgan bo'lsa, keyingi paytda ularning tojik tilidan kirgan "peshona" shakli ko'proq qo'llanadigan bo'ldi, "manglay" so'zi ko'proq stilistik funktsiya bajaradigan holga kelib qoldi deyish mumkin.

Men bu **jigitni** mirzabashi qilmaqchi bo'ldim,-dedi xon va tizasi tegidan bir qog'oz olib, domla Niyoziyga **uzatti**, o'qing, domla (Abdulla Qodiriy."Mehrobdan chayon" 85-bet).

Bu o'rinda xususan hozirgi imloda "ng" birikmasi bilan ifodalangan burun tovushining matnda ayrim so'zda til oldi, ba'zi so'zda til orqa qilib talaffuz qilinishiga e'tibor bersak, bu holning Qo'qon shevasiga fonetik jihatdan mos ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Ayni paytda Abdulla Qodiriyning qanchalik til biluvchiligiga imon keltiramiz. Abdulla Qodiriy asarlarida qo'llangan Qo'qon sheva xususiyatlarini dars jarayonida o'quvchilarga to'g'ri tushuntirish faqat til nuqtai nazaridangina emas, balki xalq tarixini to'g'ri talqin qilishi jihatidan ham muhimdir.

O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p shevali til bo'lib, bu shevalar adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Abdulla Qodiriy buyuk so'z san'atkori va ustasi, xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan ijodkordir. Uning qaysi asarini o'qimaylik har qadamda shevaga xos so'zlarga duch kelamiz. Abdulla Qodiriy o'zining "Mehrobdan chayon" asarini yozishda tarixiy shakllar bilan

bir qatorda xalq tili, xususan qo'qon guruh shevalaridan ham ma'lum maqsad uchun o'rinli foydalangan. Xususan, "Mehrobdan chayon " Qo'qon xonligi haqidaligiga e'tiborni qaratsak, bu holni tabiiyligiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan, quyidagi matnda bu hol juda ochiq ko'zga tashlanadi:

-Hissiyotga qattiq berilibsan, Ra'no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa, **ayamga** ham ishonib bo'lmas. **Manim** xolisligimni shundan ham payqasangiz bo'lar edi,uka.("M.ch" 99-bet)Xon **sufaning** zinasiga etib, yuqori **mind**i.(164-bet)Duodan so'ng barcha yuz **suypadi**(164).-Qo'y,aka, qo'y! – deb yig'ladi Baxtiyor,-bekorga o'lib ketmay, **bala-chaqam** bor?(170-bet) Davlat olpong-tolpong **bordong'a** kirib ketdilar...(170)Buni **payqag'an** xalq sekin-sekin, bir-birisi bilan imlashib, kulimsishdilar va barchaning ko'zi **bordon** uyda bo'ldi(171)-Tushunmagan bo'lsangiz, - dedi Og'acha,-mundan so'ng haramga xotin va kaniz keltirilmasin, deyman.(130)

Abdulla Qodiriy romanlarining tili xalq tilidir. Mashhur adib xalq hayotining badiiy tasvirini berish uchun o'tmish hayotni o'sha davr ko'zi bilan ko'rdi. Xalq jonli so'zlashuv tiliga e'tiborini qaratdi.

Abdulla Qodiriy shevaga xos so'zlardan badiiy asarda uslubiy maqsadlarda:asarda ishtirok etgan personajlar nutqini tavsiflash, mahalliy koloritni ko'tarish uchun foydalangan. Abdulla Qodiriy ijodi katta bir dengiz. Biz "Mehrobdan chayon" asaridan olingan ozgina shevaga xos so'zlarni keltirdik.

Abdulla Qodiriy katta so'z san'atkori va ustasi, xalq jonli tilining yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o'z asariga singdirgan buyuk allomadir. Yozuvchining yana bir mahorati shahar

shevalariga xos iboralarni personajlar nutqiga nihoyatda ustalik bilan “edirgan”ki bu bilan ham salbiy, ham ijobiy xislatlarni mahorati namoyish etiladi:

-Iymanma, Kumush Otin, bugun-erta bizga yangi kelinsan, uchinchi kundan boshlab sen mug’ombirning boshingda tegirmon yurgizishni o’zim yaxshi bilaman!-dedi O’zbek Oyim.

Ushbu ibora haligacha shevalarimizda saqlanib qolgan bo’lib, ma’nosi O’zbek Oyim shunday kelinini Marg’ilonda yurib, Toshkentga mehmon bo’lib emas, farzand, qiz bo’lib kelganiga ishora qilinmoqda. Abdulla Qodiriy mavjud so’zlarni tanlaydi, saralaydi, nutq davrasida alohida yuk ko’taruvchi vositani tanlab, topib ishlatadi.

-Nega bu erda tegirmonchining ishsiz qolgan eshshagiday junjayib o’lturubsan, Sodiq-dedi bir yigit. Boshqalar buning so’ziga kuldilar. Bizga ma’lumki, shevadagi so’zlar juda oddiy va sodda. Yigitning gapidagi jo’njayib, junjikib, g’ujanak kabi ma’nolarda qo’llanilayapti.

Abdulla Qodiriy katta so’z san’atkori va ustasi xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o’z asarlariga singdirgan buyuk allomadir

Xullas, ulkan so’z san’atkori Abdulla Qodiriy xalq tilining imkoniyati cheksizligini namoyon etadi. Ularda voqelikning xarakterli nuqtalarini mujassamlashtirib, ifoda mantiqini kuchaytiradi, tasvirga aniqlik va ixchamlik baxsh etadi.

Xulosa

Har qanday mahalliy sheva tilning quyi shakli bo'lib, u adabiy tilning boyishi uchun bitmas-tuganmas manbaidir. Afsuski, bizning tilshunosligimizda tilning taraqqiyotini sun'iy tarzda tezlashtirishga intilish, xuddi mulkni umumlashtirishga shoshilganimiz singari umumiy tilga ega bo'lishga shoshilish tendentsiyasini uzoq vaqt hukmron bo'lib kelishi natijasida adabiy til mahalliy til - lahjalarga, ayrim mahalliy lahjalar bir-birlariga qarshi qo'yildi. Bu ham o'z navbatida, adabiy tilni har jihatdan kambag'allashtirdi, g'ariblashtirdi. O'zbek tilshunosligining oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri Respublika hududidagi barcha lahjalarni sinchiklab o'rganib chiqish va ulardagi ko'plab unutilgan so'zlarni to'plash, ularni adabiy til xazinasiga olib kirishdan iboratdir.

O'zbek shevalarining asosiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qituvchi, ayniqsa, ona tili o'qituvchisi uchun juda zarur hisoblanadi. O'zbek tili dialektlari xilma-xil va juda murakkab. Oliy o'quv yurtini tugatgan ona tili o'qituvchisi o'zining ish faoliyatida turli dialekt vakillari bilan uchrashadi. Shuning uchun o'qituvchi mashg'ulotlarni o'zbek tilining adabiy normasida olib borishi bilan birga shevalarning asosiy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'quvchilarga adabiy til va sheva o'rtasidagi farqni tushuntirishi lozim. Shundagina o'quvchilar yozuvida va nutqida uchraydigan dialektal xatolarning oldini olishda qiynalmaydi. Hozirgi kunda sheva xususiyatlari adabiy til ta'sirida juda tez birlashib, tekislanib borayotganiga qaramay, bu xususiyatlar faqat qishloqlarda emas, hatto shaharlarda ham ma'lum darajada

saqlanib turibdi. Shu sababli o'quvchilar nutqida, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuvida uchraydigan xatolar sheva ta'sirida sodir bo'lmoqda. Shuning uchun o'qituvchilar, ayniqsa, ona tili o'qituvchisi, o'zbek adabiy tili normalarini yaxshi bilishi, bu normalarni o'quvchilarga o'rgatishi, ularning yozma va og'zaki nutq madaniyatini o'stirish ustida tinimsiz mashg'ulot olib borishi zarur va o'quvchilar nutqida uchraydigan kamchiliklarni (sheva ta'siridagi) tuzatmoq uchun barcha o'zbek shevalariga xos xususiyatlarni yaxshi bilmog'i kerak. Masalan o'quvchilarning nutqida fonetik (aynalmoq G'G' adabiy-orfografik aylanmoq; esna G'G' ad.-orf. ensa), morfologik (qaratqich kelishigi o'rnida tushum kelishigi affiksini ishlatish: nonni ushog'i G'G' ad.-orf. Nonning ushog'i. Jo'nalish va o'rin-payt kelishiklarini farqlamaslik: Buxoroga turadi G'G' ad.-orf. Buxoroda turadi), leksik- (ad.-orf: chaqaloq o'rnida buvak, bobak, jiji; ad.-orf. – chumoli o'rnida: mo'rcha, qorinja) kabi sheva xususiyatlari uchrab turadi. O'quvchilar nutqida uchraydigan bunday xatolarni tuzatish uchun o'quvchi shu xatolarni kelib chiqish sabablarini bilmog'i kerak.

Shunday qilib, respublika oliy o'quv yurtlarida filologik o'qitishning asosiy vazifasi o'zbek adabiy tili normalarini, shuningdek, adabiy tilni shevalarga munosabatini ham o'rgatishdir. Bu vazifani hal qilish filolog talabalarning o'zbek tilining tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi bilan bog'liqdir. “Ona tili” o'qituvchisi Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyatini o'zbek tilida so'zlab beradi. Qiyin, izohtalab so'zlarni doskaga yozadi. Talabalar

yuritadigan lug'at daftarlariga talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarni va shevaga xos so'zlarni ham yozib boradi.

Abdulla Qodiriy romanlaridagi milliy ruh tashqi tomondan juda oddiygina bo'lib ko'ringan nuqtalarda, masalan, hatto qahramonlarning bir-biriga murojaatlarida ham yaqqol ko'rinib turadi. O'zbeklar orasida jinsi, yoshi, mavqeiga qarab murojaat etadigan so'zlar juda ko'p. Abdulla Qodiriy o'z asarlarida bunday so'zlardan ko'p va o'rinli foydalangan. "O'tgan kunlar" romanida begim, bek, aka, jiyan, opa, singil, amaki, bekachim, mulla aka, usta aka, fuqaro kabi so'zlar uchraydi. "Mehrobdan chayon"dagi **"Shu to'g'rida janobingiz Mirzo Anvardan to'yga urinishimiz uchun bir kalima javob olib bersangiz", "Taqsirimda ojiza borligini pushti panoj eshitgan ekanlar", "Bundan so'ng qo'qonlik Miyon Fazl Vahhob hazratga erga chiqdi", "Yo'q taqsir-dedi dehqon, - taqsirim shu qog'ozni pitib berdilar"** kabi jumalardagi so'zlarda qancha izzat-hurmat bor.

Mazkur kuzatishlardan ma'lum bo'lib turibdiki, Abdulla Qodiriy asarlaridan o'zbekning hidi kelib turadi, o'zbek ruhi jo'sh uradi, o'zbek kuyi jaranglaydi. O'zbekiston tabiatining barcha ranglari jilolanadi. O'zbek tilining butun jozibasi lovullab turadi. O'zbek badiiy tafakkur tarzi yaraqlab ko'rinadi, uning adolatparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, do'stlik tuyg'ulari mavjlanadi, odam oobi, sharmu hayosi, mehr oqibati, g'urur va sururi, mardligi, vatanparvarligi aks etadi. Bu fazilatlar Abdulla Qodiriyning xalq hayoti va ruhiga juda yaqinligi, uning tarixi va taqdiriga astoydil

kuyinganligi, uning siyosiy iqtisodiy va ma'naviy kamolotiga, o'z-o'zini anglashiga dil-dilidan qayg'urgani hamda o'zbek xalqi turmushini qayta qurilishi, forig'lanishi, saodatlanishiga xalaqit beruvchi yomonliklarga cheksiz nafratidan tug'ilgandir.

Xulosa qilib aytganda, doim shuni yodda tutishimiz lozim, xalq tili-umumxalq mulki, xalq boyligidir. U adabiy tilimizning ichki oziqlantiruvchi hayotbaxsh manbaidir. Adabiy tilimizning asosiga xalq tili elementlarini tobora ko'proq kiritmog'imiz zarur. Chunki xalq tiliga asoslangan adabiy til qandaydir qotib qolgan emas. U doimiy ravishda o'zgaradi, o'sadi, boyiydi va takomillashadi.

Abdulla Qodiriy ijodi katta bir dengiz misol. Biz "Mehrobdan chayon" asaridan bir tomchi shevaga xos so'zlarni keltirdik xolos. Uning asarlaridagi xalq tiliga xos so'zlarni to'plash va tahlil qilish o'zining haqiqiy tadqiqotchisini kutmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, O'zbekiston, 1999, 82 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008, 63 -bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. Toshkent, O'zbekiston, 2000, 350 bet.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. –137-b
5. A.Q. Kichik asarlar. T., 1969y. 186-187 betlar
6. Abdurahmonov N. O'zbek tilida juft so'zlar. Samarqand, 1969, 168 bet. Aliyev A. Abdulla Qodiriy. - T., 1967;
7. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent. Fan. 1985. 199 bet.
8. Boboniyozov A. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida tasviriy vositalar va til badiiyati: Filol. fanlari nomzodi ... diss. - T., 1995;
9. Berdiyev X. Rasulov R. O'zbek tilining parimialogik lug'ati. T.: O'qituvchi, 1984.
9. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. Toshkent, 1979
10. Doniyorov R. O'zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasini tartibga solishning ayrim masalalari. - «O'zbek tili va adabiyoti» 1979, 3-son.
11. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2004, 1 – qism.
12. Nasriddinov F. Adibning yo'li. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971
13. Tursunov U. , Muxtorov J., Rahmatullayeva 111. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1975, 367 bet.

14. Tursunova T. O'zbek tili amaliy san'ati leksikasi. Toshkent, 1978.
15. To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.-T.: «O'qituvchi», 1996, 7-b
16. To'ychiboyev B, Shirinov S, Qashqirli Q. "Tuganmas boyliklar bulog'i". –Toshkent, "O'qituvchi", 1991 yil.
17. To'ychiboyev B, Shirinov S, Qashqirli Q. "O'quvchi nutqi va xalq tili" T., RUMS, 1992.
18. Faxri Kamol. Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent, 1953.
19. Mamatov N. O'zbek tilida qo'shma so'zlar. Toshkent, 1982. Mirzaev I. Abdulla Qodiriy. - T.: Fan, 1975;
20. Muhammadjonova G. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi masalalari. Toshkent.
21. Pinxasov Ya. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. Toshkent, 1960, 167 bet.
22. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi.-T.: «O'qituvchi», 1978, 42-b.
23. Sobirov O. Sarchashma adib ijodida. - T., 1975.
24. Samadov Q. Oybekning til mahorati. Toshkent, 1981 yil. 99 bet.
25. Samadov Q. Oybekning so'z davlati. Guliston, 1993 yil, 31 bet.
26. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati. - T.: Fan, 1966.
27. Normatov U. Qodiriy bog'i. - T., 1995.
28. O'zbek xalq maqollari. T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989. 92-bet. " O'sha asar . 304 bet.
29. Hikmatlar xazinasini. T., Yosh gvardiya. 1977. 106 bet.
30. Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi. Toshkent, 1979.
31. G'ulomov A.G'. O'zbek tilida so'z yasash yo'llari xaqida. Til va adabiyoti instituti asarlari. O'zbek tili grammatikasidan materiallar. 1 kitob. T., Fan. 1949. 39-bet.